

## MAKTABGACHA TA'LIMDA MONITORINGNING AHAMIYATI

*Karimova Mavluda Odilbek qizi*

*Urganch davlat universiteti magistratura bo'limi*

*“Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi“ mutaxasisligi 212-guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tashkiloti (MTT) faoliyatini zamonaviy marketing tadqiqotlari asosida takomillashtirishning nazariy asoslari, mavzuning uslubiy jihatlari va uning o'rganilganlik darajasi keng yoritilgan. Mavzuning bugungi kundagi dolzarbliji, yosh avlod tarbiyasida va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, ayni paytda MTT faoliyatiga oid mavjud muammo va kamchiliklar izohlab berilgan. Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari va MTT faoliyatini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilib, tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Monitoring, raqobat, didaktik monitoring, kontekst, prognozlash, monitoring vazifalari, boshqaruv monitoring, ijtimoiy-psixologik monitoring.

### Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lif tizimi raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan sezilarli o'zgarishlarni amalga oshiradi va bu maktabgacha ta'lif xizmatlari sohasiga ham taalluqlidir. Chunki zamonaviy ta'lif konsepsiyasiga ko'ra, maktabgacha ta'lif xizmatlarini rivojlantirish ta'lifning rivojlanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarorlarning ijrosini taminlash bugungi kunda ushbu yo'naliшning qanchalik darajada dolzarbigidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lif tizimini tanqidiy o'rganish va yanada faoliyatini takomillashtirish maqsadida ilmiy asoslangan marketing tadqiqotlarini olib borish zarurati paydo bo'ldi. Maktabgacha ta'lif sohasidagi qonunchilik asoslari yetarli emasligi, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil etish muammolari kuzatilmoqda.

### Asosiy qism

Zamonaviy maktabgacha ta'lifni rivojlangan davlatlar ta'lif standartlari talablariga javob beradigan va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribani o'rganishning ahamiyati juda katta.

Pedagogik monitoring bu o'quvchilar rivojlanishini prognozlash va tuzatishlarni ta'minlaydigan pedagogik jarayonning holatini kuzatish (ko'rsatkichlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash). A.S. Belkin pedagogik monitoringning quyidagi turlarini sanab o'tadi:

1. Didaktik monitoring;
2. Ta'lim monitoring;
3. Boshqaruv monitoring;
4. Ijtimoiy-psixologik monitoring.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini mana shu turlar orqali monitoring sarhisobini chiqarsak ta'lim sohasida o'sish foizlarini sezilarli darajada ko'tarishga erishiadi.

I.A. Andreev pedagogik monitoringning quyidagi tamoyillarini belgilaydi:

- konseptuallik tamoyili;
- izchillik tamoyili; binarlik tamoyili;
- masala tamoyili;
- boshqaruv tamoyili;
- informatsionlik tamoyili;
- rivojlanish (dinamika) tamoyili; ➤ prognoz qilish tamoyili.

V. G. Bykova ta'kidlaganidek, "ta'lim tashkiltlarida monitoringning maqsadi - ta'lim holatini samarali aks ettirish, faoliyat natijalarining tahliliy xulosasi va uni ta'minlash va rivojlantirish prognozini ishlab chiqish".

Monitoring vazifalari: ta'lim tizimiga so'rovlar turlari va ma'lumotlarni to'plash usullarini tanlash texnologiyasini ishlab chiqish; axborotni to'plash, axborotning birlamchi tahlilini amalga oshirish, axborot massivlarini tasniflash, axborot bankini yaratish; axborotning kompyuter bazasini ishlab chiqish, axborotni umumlashtirish, tasniflash va birlamchi tahlil qilish, ma'lumotlarni qayta ishslash, yangilash va ma'lumotlar bazalariga kiritish; ta'lim tashkilotida ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalarini aniqlash, prognozlar, tahliliy, ma'lumotnomalar, hisobotlarni yaratish, ta'lim tashkilotida ta'lim tizimini monitoring qilish texnologiyasini takomillashtirish, ta'lim tashkilotida ta'lim tizimini standartlashtirish (normallashtirish) asoslari va mezonlarini ishlab chiqish, ta'lim tashkilotlarining tashkiliy, boshqaruv va pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatning eng tipik belgilarini ajratib ko'rsatish, o'qitishning ilg'or pedagogiktajribasini tarqatish va uni tashkiliy-boshqaruv ta'minoti ko'lамини aniqlash.

Pedagogik monitoringni ta'lim tashkilotlari jarayoniga kiritish bir nechta bosqichlarda sodir bo'ladi, uning xususiyatlari A.S. Belkina, G.A. Karpova, S.N. Silina, S.A. Ravichevning tadqiqotlarida keltirilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish universitetning o'quv jarayonining pedagogik monitoringi bosqichlarini aniqlash imkonini beradi:

1. Normativ va ustav bosqichi;

2. Analitik va diagnostik bosqich;
3. Faoliyat-texnologik bosqich;
4. Vaqtinchalik diagnostika bosqichi;
5. Yakuniy diagnostika bosqichi

Fikrimizcha, zamonaviy marketing faoliyatini shakllantirish va uning strategiya hamda taktikasini belgilashning asosi – marketing tadqiqotlari hisoblanadi. Marketing tadqiqotlari marketingning muayyan muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish va prognozlashni ta'minlovchi har qanday tadqiqot ishidir. Marketing tadqiqotlari korxona marketing jarayonining har qanday davrining boshlanishi va mantiqiy xulosasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday tadqiqotning maqsadi marketing qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq noaniqlikni kamaytirishdir. Marketing tadqiqotlari tashkilotning yo'nalishiga ta'sir ko'rsatadigan barcha asosiy qarorlarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi

### **Hulosa va takliflar**

Ta'lim xizmatlari sifatini oshirish va takomillashtirish maqsadida amalga oshiruvchi marketing tadqiqotlari yordamida jamiyat va ta'limni real va talab etiladigan ta'lim natijalari tafovutini kamaytiradi. Maktabgacha bolalar tashkilotlaridan va oiladan maktabga kelgan bolalarning tayyorgarlik darajasi va bilim saviyasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolani sog'lom, xar tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'limni takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- malakali tarbiyachi va mutaxassislar malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, tarbiyaviy ahamiyatga ega o'yinlar yaratish uslubiyotini takomillashtirish va joriy etish;
- maktabgacha ta'lim bozorida sog'lom raqobat muhitini kuchaytirish;
- -zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalari bilan ta'minlash va ushbu xizmatlarning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- MTT faoliyatini kompleks tahlil qilish uchun zamonaviy marketing tadqiqotlarini amalga oshirish mexanizmini yaratish va amaliyotga joriy etish.
- 3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'liq qamrab olish;
- Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish maqsadida xususiy biznes vakillari, mahalla, xayriya tashkilotlari va xalqaro fondlar faol ishtirok etishinim ta'minlash.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Виноградова Н.Н. Проблема социокультурного развития детей старшего дошкольного возраста. //«Молодой учёный».
2. Конченко С.В. Влияние сюжетно-ролевой игры на развитие коммуникативных умений детей старшего дошкольного возраста. // «Молодой учёный».
3. Браузман Т.В. Возможности организации развивающей предметно - пространственной среды логопункта в коррекции речевых нарушений детей дошкольного возраста. // «Молодой учёный».
4. Proctor T and Jamieson B. Edinburgh Business School Marketing Research. UK. 2012. pp. 20.
5. Malhotra N. Marketing Research: An Applied Orientation, 6 th edition, Pearson Education, 2010.
6. Савинская О.Б. Данное научное исследование (№ 14-01-0005) «Разработка методики родительской оценки качества услуг муниципального детского сада (на примере г. Москвы)» выполнено при поддержке Программы «Научный фонд НИУ ВШЭ» в 2015 г.
7. Ребрикова Н.В., Шальнова О.А. Рынок услуг дошкольного образования: анализ маркетинговой среды. //«Молодой учёный».
8. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ МОНИТОРИНГ В КОНТЕКСТЕ ПЕДАГОГИКИ И ДИДАКТИКИ - Фундаментальные исследования (научный журнал) <https://fundamentalresearch.ru/ru/article/view?id=5888>
9. Z.Botirova ABOUT THE ANALYSIS OF THE POTENTIAL OF TEACHING STAFF IN MONITORING PRESCHOOL EDUCATION. 2008 у.
10. Z.Botirova Повышение мотивации учащихся начальных классов ПРОБЛЕМЫ №6 [151] 2 част 2 Moskov 2020 62-64 ст.
11. Z.Botirova Мактабгача таълимда болалар соғлом турмуш тарзини шакллантириш усуллари Молодой учёный №50 Част 8 2020 й, 97-98-бетлар.
12. Z.Botirova Мактабгача таълим муассасаларида болалар саломатлигини мустаҳкамлаш мониторингини амалга ошириш хусусида II Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami 2018 йил 22-28 бетлар.
13. Z.Botirova Maktabgacha ta`lim muassasalari monitoringida pedagogik kadrlar salohiyati tahlili xususida NamDU axborotnomasi 2019 yil 20-son, 266-270 betlar.
14. Z.Botirova, F.O'ranova, M.Turg'unov (2022). Modern journal of social sciences and humanities jurnalining 4-son, 444-448-betlar.
15. Z.Botirova, D.Dusmatova (2022). Organizational and management activity of the head of preschool educational organizations Modern journal of social sciences and humanities jurnalining 4-son, 343-348betlar.
16. Z.Botirova, M.Xoshimova (2022). Organizational structure of preschool education management International journal of culture and modernity 17-son, 189-193-betlar

17. Z.Botirova, R.Djumaboyeva (2022). Organization of pedagogical monitoring in the system of education quality management International journal of culture and modernity 17-son,183-188-betlar.
18. Z.Botirova, R.Djumaboyeva Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati monitoring xususida. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalining 2022-yil 8-son, 472478-betlar.
19. Z.Botirova, M.Xoshimova Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish "Menejment"tushunchasi va uning xususiyatlari O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalining 2022-yil 8son, 479-483-betlar
20. Z.Botirova, D.Dusmatova Maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkiliy boshqaruv faoliyati xususida O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalining 2022-yil 8-son, 484-488-betlar.
21. Z.Botirova Maktabgacha ta'limda axborot texnologiyasidan foydalanishning nazariy tahlili NamDU ijmiy axborotnomasi 2019 y. 1 (11) 266-269b.
22. Turdalievich, Z. M., & Mukhtoralievna, Z. S. (2007). (nd). UDK: 398.221 specific features of language interference in contrastive linguistics.
23. Zokirov, M. T. (2021). To typology of language situations. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (103), 706-710.
24. Zokirov, M. T., & Ibragimova, M. S. N. (2021). Alisher Navoi about style problems. ISJ Theoretical & Applied Science,(12), 601-604.
25. Turdalievich, Z. M., & Ergashevna, S. S. (2022). About the "Space" and "Time" Philosophical and Language Categories. International Journal of Culture and Modernity, 13, 96-100.
26. Turdalievich, Z. M., & Shukrona, A. (2022). About Turkish-Uzbek Vocabulary Words in the Lexical Structure of the Tajik Language. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 620-624.
27. Turdalievich, Z. M. (2022). To the Question of the Study of Arabisms in the Persian Language. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 566-570.
28. Turdalievich, Z. M. (2022). About Grammatical or Morph syntactic Interference. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 768-773.
29. Ismoil, H., Mukhtorali, Z., Jumaboy, J., & Parviz, A. (2022). WORD FORMATION FROM THE TAJIK BORROWINGS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 71-76.
30. Turdalievich, Z. M. (2022). Analysis of Phraseological Units in Tohir Malik's Novel "Talvasa". Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 364-368.